

## ZUBTURUM O‘SIMLIGINING MORFOLOGIYASI VA SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATI

**Qo‘ziboyev Davron Sobir o‘g‘li**

*SHDPI – Biologiya yo‘nalishi talabasi*

**davronquziboev@gmail.com**

**Annotatsiya:** *Zubtutum qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda foydalanib kelingan o‘simlik. Zubtutumning shifobaxshlik xususiyati xalqimizga juda qadimdan ma‘lum. Uning bargidan ko‘z og‘riqni, yaralarni, ayniqsa chipqonni davolashda foydalanib kelingan.*

**Kalit So‘Zlar:** *Zubtutum, davolash, kasalliklar, shifobaxsh, tabobat, o‘simlik, barg.*

**Abstract:** *Zubtutum is a plant that has been used in folk medicine for the treatment of various diseases since ancient times. The healing properties of Zubtutum have been known to our people for a long time. Its leaves have been used to treat eye pain, wounds, especially scabies.*

**Keywords:** *Zubtutum, treatment, diseases, healing, medicine, plant, leaf.*

**Аннотация :** *Зубтурум – растение, которое с древних времен используется в народной медицине для лечения различных заболеваний. Целебные свойства зубтурума известны нашему народу издавна. Его листья использовались для лечения глазных болей, ран, особенно чесотки.*

**Ключевые Слова:** *Зубтурум, лечение, болезни, исцеление, лекарство, растение, лист.*

### KIRISH

Zubtutum ( *Plantago major* .L) zubtutumdoshtlar oilasidan bo‘lib, bo‘yi 10 (55) sm keladigan ko‘p yillik o‘t. Bargi tuxumsimon yoki ellipsimon, asosi yumaloq yoki ikki tomonidan siqiq, tekis qirrali.

Gultobjarglari och-qo‘ng‘ir rangli, tuksiz, naychadan iborat, tuxumsimon nashrlar shakliga egadir. Urug‘i qo‘ng‘ir tusli bo‘lib mayda, zubtutum may-sentabr oylarida gullaydi va urug‘laydi. U begona o‘t sifatida ariq bo‘ylarida, daryo qirg‘oqlarida, yo‘l atroflarida, zax yerlarda, bog‘larda ko‘p o‘sadi.

Zubtutumning shifobaxshlik xususiyati xalqimizga juda qadimdan ma‘lum. Uning bargidan ko‘z og‘riqni, yaralarni, ayniqsa chipqonni davolashda foydalanib kelingan.

Sharbatidan esa teri shamollashini, qon ketishini to‘xtatishda, yo‘tal va ich ketishini davolashda dori-darmon sifatida foydalanilgan. O‘simlik bargida glyukozid, invertin va emulsin, karotin, 4% tanid moddalari, alkaloid hamda 8.4mg%-41.2mg% C, A, K vitaminlari, urug‘ida oqsil va 22% yog‘ bo‘ladi.

Ilmiy meditsinada zubtutum bargidan tayyorlagan nastoykadan ko‘kyo‘tal, bronxial astma hamda sil kasalliklarini davolashda keng foydalaniladi. O‘simlik sharbati va damlamasi yordamida yaralar tez bitadi. Uning shu xususiyatlarini e‘tiborga olib,

Plantaglyutsid preparati yaratilgan. Bargidan tayyorlagan sharbat bilan oshqozon yarasini va yallig'lanish kasalliklarini davolash mumkin.

Zubturumning shifobaxshlik xususiyati uning tarkibidagi fitonsid moddalarining antimikroblik qobiliyatiga ega ekanligidir. Bundan tashqari gilikozyd aukubin gidrolizlanib, aukubigenin va glyukozaga parchalanadi. Shuningdek uning tarkibida filovoksid, C va K vitaminlari, A provitami, oshlovchi va achchiq moddalar, polisaxarid hamda turli xil mikro va makro elementlar, urug'ida esa oqsil va 22 protsent yog' moddalari bor.

Barglari yil bo'yi kalta bandli qilib qirqib olinadi va tezlikda soya yerda quritiladi. Yer ustki qismi o'simlik gullagan vaqtida yig'iladi va quritilmasdan undan shira olish uchun farmatsevtika zavodlariga yuboriladi.

Bargi bilan yer ustki qismida 0.1% efir moyi, shilliq moddalar saponinlar, aukubin glikozidi, vitamin C (300 mg % gacha) va K, 4.5-32.91 mg % karotin, flavonoidlar (lyuteolin, skutellyarein, apigenin va ularning gilikozydleri). T-omil, organik kislotalar, achchiq, oshlovchi va boshqa moddalar, urug'ida 22% gacha yog' saponinlar, 44% gacha shilliq va boshqa moddalar bor.

Zubturum qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda ko'p ishlatib kelingan o'simlik. Uning bargi bilan Abu Ali Ibn Sino o'z vaqtida qiyin bitadigan yaralarni, shishlarni (xavfli shishlarni ham), ko'z yallig'lanishi, jigar, buyrak va boshqa kasalliklarni davolagan hamda qon oqishini to'xtatish uchun ishlatgan. Jigar va buyrak kasalliklaridan hamda qon tupurishda bemorga zubturum urug'ining qaynatmasini ichirgan. Quritilgan barg yoki urug' shirasidan ichak yarasida huqna qilgan.

Bargidan tayyorlagan damlamasi yoki quritilmagan barg shirasi xalq tabobatida nafas yo'llari, ko'z, teri, bezgak, so'zak va yo'g'on ichak yallig'lanishi, Turli yuqumli kasalliklarni hamda yaralarni kuydirgini davolashda, shuningdek turli qon oqishlarni to'xtatishda qo'llaniladi.

Zubturum yana o'pka va me'da rakini davolash uchun hamda nafas yo'li kasalliklarida balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Yaralar, chipqon va kesilgan yerlarni davolash uchun yangi uzib olingan bargi ezib ishlatiladi.

Zubturum urug'idan tayyorlagan qaynatmasi yoki shakarga aralashtirib qovurilgan urug'i bilan qon aralash ich ketish (ayniqsa bolalardagi qon aralash ich ketishda) hamda yo'tal, isitma, qon tupurish va boshqa kasalliklar davolanadi.

Zubturumning yangi yig'ilgan bargi ezib teng miqdorda shakar aralashtiriladi va issiq joyda uch hafta saqlanadi. So'ng shu aralashmagan ajralib chiqqan shiradan kuniga 3-4 choy qoshiqda o'pka va me'da raki kasalligini davolash uchun bemorga ichiriladi.

**XULOSA:** Zubturum o'simligi qadim-qadim zamonlardan beri xalq tabobatida foydalanib kelingan. Zubturum o'simligidan xalq tabobatida ko'z og'rig'i, yaralar, shish, qon oqishini to'xtatish va boshqa turli xil kasalliklarni davolashda foydalanib kelinmoqda. Zubturum o'simligida turli xil vitaminlar, organik kislotalar, efir moyi va boshqa moddalar bor. Bu o'simlikdan o'pka va me'da rakini davolashda ham foydalaniladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. 1.Q. Hojimatov. O'zbekistonning vitaminli o'simliklari. TOSHKENT-1973. 26-bet.
2. Q. Haydarov, Q. Hojimatov. O'zbekiston o'simliklari. TOSHKENT <<O'QITUVCHI>> 1992. 167-bet.
3. Q. Hojimatov, M. Olloyorov. O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari va ularni muhofaza etish. TOSHKENT-1988. 29-bet.
4. S.X. Babadjanova, X.M. Bobojonova. Dorivor o'simliklar florasini va sistemikasi. URGANCH-2021. 108-109- betlar.
5. Nuraliyev, S. (2024). ANAGALLIS ARVENSIS LINN. (SCARLET PIMPERNEL)NING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI HAMDA TUZILISHI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10998301>